ratoriyalar, multimedia vositalari hamda masofaviy ta'lim tizimlaridan foydalanish pedagogik dasturiy vositalar fanini o'qitish jarayonini modernizatsiya qilishga yordam berishi aniqlangan. Bu esa talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini yanada samarali rivojlantirish, ularning mustaqil fikrlashi va ijodiy yondashuvini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu asosda quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

•pedagogik dasturiy vositalar fanini o'qitishda zamonaviy raqamli platformalar va elektron ta'lim resurslaridan keng foydalanish;

•o'quv jarayonida interaktiv metodlar va innovatsion pedagogik texnologiyalarni tizimli joriy etish;

•pedagogik dasturiy vositalar bo'yicha dasturiy-metodik ta'minotni muntazam yangilab borish va takomillashtirish;

•talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantirish uchun onlayn ta'lim muhitlari va virtual laboratoriyalarni keng qo'llash;

•o'qituvchilarning raqamli pedagogik kompetensiyalarini oshirishga qaratilgan malaka oshirish dasturlarini tashkil etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Raqamli O'zbekiston – 2030 strategiyasi. Toshkent, 2020.

(2). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-farmoni.

(3). Ibraymov A.Y. Masofaviy o'qitishning didaktik tizimi. Metodik qo'llanma, T., "Lesson press", 2020, 112-bet.

(4). Quljonov N.J. Raqamlashtirish sharoitida pedagog kadrlar tayyorlashda dasturiy-didaktik vositalarning samaradorligi. "Экономика и социум", № 6-2 (133), 2025, p. 704–711.

(5). Radjapova Natalya, et al. Developing framework for role of mobile app in promoting aquatic education and conservation awareness among general people. 2024.

(6). Almufarreh A., Arshad M. (2023). Promising Emerging Technologies for Teaching and Learning: Recent Developments and Future Challenges. *Sustainability.* https://doi.org/10.3390/su15086917.

(7). Mabrouk S. (2025). Integrating Educational Technology and Pedagogical Foundations to Enhance University Learning Outcomes. *Academic Journal of Interdisciplinary Studies.* https://doi.org/10.36941/ajis-2025-0078.

Abdusalomova Saidabonu Ziyovuddin qizi (Andijon davlat Chet tillari instituti tayanch doktoranti;
E-mail: saidabonu73@gmail.com)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIMTIZIMINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA OLIY TA'LIM BOSHQARUVI SIFATINING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. *O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimi mustaqillikdan so'ng bir necha bosqichlarda rivojlandi: tarkibiy islohotlar, modernizatsiya va xalqaro ta'lim makoniga integratsiya jarayonlari amalga oshirildi. Mazkur ishda oliy ta'lim tizimi rivojlanish bosqichlari hamda ta'lim boshqaruvi sifatining nazariy asoslari, boshqaruv modellari, normativ-huquqiy baza, akademik avtonomiya va samaradorlikni oshirish mexanizmlari tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *O'zbekiston, oliy ta'lim tizimi, ta'lim islohotlari, rivojlanish bosqichlari, ta'lim boshqaruvi, sifat menejmenti, akademik avtonomiya, modernizatsiya.*

ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ УПРАВЛЕНИЯ ЕГО КАЧЕСТВОМ

Аннотация. *Система высшего образования Узбекистан прошла несколько этапов развития после обретения независимости: структурные реформы, модернизацию и интеграцию в мировое образовательное пространство. В работе рассматриваются основные этапы реформ и теоретические основы управления качеством высшего образования, включая модели управления, норматив-ноправовую базу, академическую автономию и механизмы повышения эффективности.*

Ключевые слова: *Узбекистан, система высшего образования, образовательные реформы, этапы развития, управление образованием, менеджмент качества, академическая автономия, модернизация.*

STAGES OF DEVELOPMENT OF HIGHER EDUCATION IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND THEORETICAL BASIS OF ITS QUALITY MANAGEMENT

Annotation. *The higher education system of Uzbekistan has undergone several developmental stages since independence, including structural reforms, modernization, and integration into the global educational space. This study analyzes key phases of reform and examines the theoretical foundations of higher education quality management, focusing on governance models, regulatory frameworks, institutional autonomy, and mechanisms for improving academic standards and effectiveness.*

Keywords: *Uzbekistan, higher education system, educational reforms, stages of development, education governance, quality management, academic autonomy, modernization.*

Kirish (Introduction). Ta'lim tizimi rivojlanishining hozirgi bosqichida jahon mamlakatlarida, jumladan, AQSH, Yaponiya, Xitoy, Janubiy Koreya va Yevropaning iqtisodiy rivojlangan boshqa davlatlarida ta'limning tashkiliy va boshqaruv tuzilmalarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida mamlakatlar umummilliy boyligining o'rtacha 16 foizi moddiy kapitalga, 20 foizi tabiiy boyliklarga to'g'ri keladi. Bu ko'rsatkichda inson kapitali 64 foiz bilan, Germaniya va Yaponiya kabi rivojlangan mamlakatlarda esa 80 foiz bilan yetakchi o'rinda turadi. Bu esa zamonaviy jamiyatlarda inson kapitalining nufuzi tobora ortayotganini, buning natijasida dunyo mamlakatlariga ta'lim tizimini rivojlantirish va boshqarish jarayonlarida zamonaviy menejment hamda uning tamoyillarigaamal qilish masalalariga katta e'tibor berayotganini ko'rsatadi. O'zbekistan Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Rivojlangan mamlakatlarda ta'limning to'liq sikliga investitsiya kiritishga, ya'ni, bola 3 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan davrda uning tarbiyasiga sarmoya sarflashga katta e'tibor beriladi. Chunki ana shu sarmoya jamiyatga 15–17 barobar miqdorda foyda keltiradi. Bizda esa bu ko'rsatkich atigi 4 barobarni tashkil etadi.[1] Binobarin, inson kapitaliga e'tiborni kuchaytirishimiz, buning uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz shart". Aynan shu vazifalarni amalgaoshirish maqsadida uzluksiz ta'lim tizimidagi integratsion munosabatlarni takomillashtirish, ta'limning boshqaruv organlari faoliyati samaradorligi hamda mas'uliyatini oshirish, o'quv-tarbiya jarayoniga ilg'or pedagogik va AKTlarini samarali joriy etish orqali ta'lim sifatini ta'minlash sohalarigaoid bir qator qarorlar qabul qilinmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Zamonaviy jamiyatda ta'limning rivojlanishi bu sohada innovatsiyalarni rivojlantirishdan iborat bo'lib, bunda ta'lim tizimidagi innovatsion boshqaruv amaliyotlarini joriy etish va ularning muvaffaqiyatli namunalarini tarqatishga yordam beradi. Innovatsion jarayonlarni boshqarish esa davlat ta'lim siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, uni ayni paytdaolimlar, siyosatshunoslar va jamoatchilik orasida muhokamalardan o'tkazib kelinayotganligi, ayni muddaodir.

Ta'lim sifati va uning samaradorligini oshirishdagi pedagogik muammolarni aniqlash tadqiqot vazifalaridan biri ekanligini inobatga olib, dastlab, ta'lim sifatining mazmun-mohiyati, falsafiy-pedagogik tahlili, rivojlanish bosqichlari hamda uning samaradorligini ta'minlovchi boshqaruv bo'yicha tahlillar olib borish nazarda tutildi. Mavzuni nazariy jihatdan ko'rib chiqishda ta'lim sifati muammosiga to'xtalib o'tildi. Bu, birinchi navbatda, "sifat", "ta'lim sifati", "samaradorlik", "ta'lim sifatini boshqarish" kabi asosiy tushunchalar mohiyatini tahlil qilishni talab qiladi.

"Ta'lim" oldingi avlodlar tomonidan tashkil etilgan katta ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan tajribalarni doimiy ravishda keyingi avlodlarga yetkazishga yo'naltirilgan umumiy jarayon bo'lib, u ijtimoiy institut, jamiyatning ijtimoiy quyi tuzilmalaridan biri hisoblanadi.

Ta'lim sifati tushunchasining falsafiy-pedagogik mohiyati va uning rivojlanishi tarixiy davr bosqichlari bilan keltirib o'tilishi bu tushunchaga nisbatan davriy munosabatni ham belgilab beradi. Shu nuqtayi nazardan ta'lim sifatini quyidagi davrlar asosida tahlil qilish maqsadga muvofiq:

1. Eng qadimgi davrdan o'rtaasrlargacha bo'lgan davr.
2. Sharq uyg'onish davridan – XVIII asrgacha bo'lgan davr.
3. XIX asr ikkinchi yarmidan – XX asr yarmigacha bo'lgan davr.
4. Mustaqillik davri – XX asr oxiri va XXI asr boshlari).

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ta'lim sifati tushunchasining kelib chiqishi eng qadimgi davr manbalarida keltirilmagan bo'lsa-da, shu ma'noni anglatuvchi ta'riflar mavjud. Jumladan, pedagog olimlardan N.Alimova, Y.Semchenko, S.Abdulina, N.Bagutdinova va Y.Yefimovlar o'z tadqiqotlarida "ta'lim sifati" tushunchasi shakllanishining dastlabki bosqichi qadimgi dunyo davlatlari mavjud bo'lgan davrga borib taqaladi, degan fikrni ilgari surgan.[2] Eng qadimgi davrda ta'lim-tarbiyaning maqsadi, sifati, uni takomillashtirish usullari va kutilayotgan natijalari haqida bevosita bizgacha yetib kelgan manbalardan bilish mumkin. Aristotel fikriga ko'ra, sifat ma'lum bir holat, borliqning farqli jihatlari, predmetga xos bo'lgan xususiyatlar, rivojlanayotgan va harakatlanayotgan obyektning joylashish nuqtalaridan iborat. U predmetlarni bir-biriga o'xshamaydigan, sifat jihatidan o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarga ega, deb ta'kidlaydi. Demak, falsafiy talqinda ta'limning eng samarali natijasi inson kamoloti bilan belgilanishi lozim.

[1] https://pm.gov.uz/oz/lists/view/203 Prezident Murojaatnomasi.

[2] Vaxobov M.M. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'qitish sifati monitoring modelini takomillashtirish. Pedagogika fanlari doktori diss., 2016, 19-bet.

Konfutsiy ta'rifiga ko'ra, ta'limning asosiy maqsadi shaxsning ma'naviyat, odob-axlod, an'analarni bilishi, qadriyatlar madaniyatiga ega bo'lishi va Vatanni sevishida o'z aksini topadi.[1]

Yusuf Xos Hojibning ta'biricha, o'quv, ilm va aql behisob mehnat va tinimsiz darakat natijasida shakllanadi. Yusuf Xos Hojib kabi aksariyat Sharq olimlari ham "doimiy va uzviy mashq iste'dodning bog'boni"dir, deya e'tirof etadi.[2]

Markaziy Osiyoning XXI asrlar uyg'onish davrida ta'lim va uning sifati o'ziga xos mazmun-mohiyat kasb eta boshlagan. Bu davr namoyandasi Al-Xorazmiy o'qitish jarayonida ta'lim oluvchining shaxsiy kuzatishlari va bilimlaridan amalda foydalana olish qobiliyatiga alohida ahamiyat berib, birinchilardan bo'lib, kuzatish-sinov usuliga asos soladi.

"Fozil odamlar shahri", "Baxt-saodatga erishuv to'g'risida", "Ilmlarning kelib chiqishi" kabi ko'plab ijtimoyi tarbiyaviy qarashlari aks etgan asarlari bilan nisoniy sifatli ta'lim-tarbiyaga yo'naltirishga undagan olim Forobiy samarali o'qitish usul va uslublarini taklif qilib, shaxsni o'qitishda ta'lim-tarbiya muhimligini va u jamiyat talablariga javob berishini ta'kidlab o'tgan.

Abu Ali ibn Sino ham o'qitish jarayoniga muvaffaqiyati ta'lim usul va mezonlarni taqdim etadi. Jumladan, ta'limda"oddiydan murakkabga", "pastdan yuqoriga" kabi tamoyillari hisobgaolinishi, o'qitish jarayonida bolaning yosh xususiyatlari, qiziqish va qobiliyati, o'zlashtirish holatlariga ko'ra, ta'limning keyingi bosqichiga yo'naltirish bo'yicha fikr yuritgan. Olingan bilimlarni og'zaki ifoda etish, mustaqil,mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish orqali ta'lim oluvchi olgan bilimlarini amaliyotga tatbiq eta olish qobiliyatini tarkib toptirishi mumkinligini ta'kidlagan. Ta'lim va uning sifatiga yuqorida keltirilgan qarashlar bu davrning eng muhim nazariy g'oyalari davlatchilik asoslarida shakllangan komil inson tushunchasi va uning rivojlanishi turli ilm-fan tarmoqlarining birgalikdagi o'zaro natijasiga asoslanadi, degan xulosa chiqarishimizga imkon berdi.

XIV – XVI, ayniqsa, ta'limgaalohida e'tibor berilib, uyg'onish davri nazariy qarashlari yanada takomillasha borgan. Ta'lim inson kamolotini ta'minlash uchun xizmat qiluvchi eng zarur vosita sifatida qaralgan. Yuqori darajada ta'lim xususiyatlarini egallagan shaxs olgan ilmini amaliy faoliyatda samarali foydalanish sari yo'naltiradi. Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarida ilm olib, uni ishlatmagan inson urug' sochib hosilidan bahra olmagan kishiga qiyoslanadi. Demak, o'sha davr qarashlari ham bugungi kunda o'quvchilar bilim olishining talablari, bilim, ko'nikma va malakalari ta'lim sifati samaradorligini ko'rsatuvchi asos ekanligini ko'rsatib bergan.

XVIII asrga kelib ta'lim sifatiga, o'quv-tarbiya jarayonlarini takomillashtirishga bo'lgan munosabatlar o'zgarib, ta'lim-tarbiyaga nisbatan qarashlar tizimi takomillashgan. Ilm-fanning nazariy va ilmiy tajriba yutuqlari sifatni belgilovchi omil sifatida talqin etila boshlangan. Pedagogika nazariyasining namoyandalaridan chex olimi Yan Amos Komenskiy "Buyuk didaktika" asarida bolaning tabiiy bilish xususiyatini hisobga olgan holdao'qitishning didaktik tamoyillarini ishlab chiqqan.[3]

Adolf Disterverg ta'lim jarayoni ishtirokchilarining bilimlarini doimiy takrorlab turishning ahamiyatiga to'xtalib, ta'lim didaktikasining asosiy talablarini ta'limning 33 ta qonun va qoidasi tariqasida bayon qilgan. U boladagi qobiliyatni yanada takomillashtirish va rivojlantirish maqsadida ta'lim beruvchilarga topshiriq bilan birga, uning javobini xam taqdim qilish emas, javobni topishga bolani turli usul va vositalar bilan yo'naltirish orqali haqiqatni topishga o'rgatish mumkinligini ta'kidlab o'tadi. Disterverg taklif qilgan ko'rsatmali ta'lim "yaqindan uzoqqa", "oddiydan murakkabga", "ma'lumdan noma'lumga" o'tish kerak, degan qoidalargaasoslanadi.

K.D.Ushinskiy o'zining "Inson tarbiya predmeti sifatida" asarida ta'lim jarayonidao'qitishning mazmuni, tamoyillari, shakl va usullariga to'xtalib, ta'limni ko'rgazmali, ongli va uzviy olib borish masalalarini ishlab chiqadi, o'qitishning shakl va usullarining rang-barangligiga erishishini talab qiladi.[4]

"Ta'lim sifati" tushunchasiga S.Y.ShishovvaV.A.Kalnelarning ham bildirgan munosabati e'tiborli bo'lib, ular "talim sifati – ta'lim jarayoni ishtirokchilarining erishadigan natijalari va maqsadlarining ta'lim muassasas tomonidan ko'rsatilgan ta'lim xizmatidan qondirilgan darajasi", deya ta'rif beradi.[5]

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Ta'lim sifatiga berilgan ta'riflar ichida V.A.Kachalov tomonidan berilgan izoh alohida ahamiyatga ega. Uning fikricha, ta'limda sifat faqatgina o'quv jarayoni natijasigina emas, balki ta'lim oluvchilarning umumiy ravishda shaxsiy va jamoaviy rivojlanishini ta'min-

[1] Atayeva N., Salayeva M., Xasanov S. Umumiy pedagogika. Darslik, Toshkent, 2013.
[2] Ibragimov X., Abdullayeva Sh. Pedagogika nazariyasi. Darslik, "Fan va texnologiya", 2008, 8-bet.
[3]Komenskiy Y.A. Buyuk didaktika. T., "O'qituvchi", 1977.
[4] Ушинский К.Д. Сочинение. М., изд-тво АПН РСФСР, 1949, Том 6.
[5] Шишов С.Е., Калней В.А. Мониторинг качества образования в школе. Учебное пособие, Москва, Российское педагогическое агентство, 1998.

laydigan va ularning ehtiyojlarini qondirgan holda ilm-fan, texnologiya, jamiyatning rivojlanishi uchun hissa qo‘shishga imkon beradigan tizim, model, o‘quv jarayonini tashkillashtirishdan iboratdir.

A.Voronin tomonidan ta’lim sifati – jamiyatda ta’lim jarayonining holati va natijasini, shaxsning fuqarolik, hayotiy va kasbiy kompetensiyalarining rivojlanishi hamda shakllanish ehtiyojlari va umidlariga muvofiqligini aniqlovchi kategoriya tarzida talqin qilingan.[1] Y.Dombrovskaya ta’lim sifatini ta’limning Davlat ta’lim standartlari, tegishli ta’lim dasturining o‘quv-dasturiy hujjatlari talablariga muvofiqligi, deb e’tirof etadi.[2]

Ta’lim sifati deganda, kasbiy tafakkur va chuqur ma’lumotga egalikning ketma-ketligi va amalda samarali shakllanishini aniqlovchi ta’lim jarayonining umumiy tavsifi tushuniladi. Shu boisdan ham, Y.A. Maslova, ta’lim jarayoni sifatining quyidagi asosiy jihatlarini alohida qayd etadi: bilimlar va ko‘nikmalar sifatidagi asosiy xususiyatlar; o‘quv yurtlari tomonidan taqdim etilayotgan kafolatlar; ta’lim muassasasining mavqeyi, nufuzi, o‘qituvchilar va ta’lim oluvchilarning kommunikativ layoqati va boshqa xususiyatlari.[3]

N.Shmyureva, M.Gubanovava Z.Kresanlar ta’lim sifati o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga doir ehtiyojlarni qondirishni ta’minlovchi ta’lim xizmatlari iste’mollilik xususiyatlarining majmuasi, deb hisoblaydilar.[4]

G.M.Kodjaspirovning ta’rifiga ko‘ra, ta’lim sifati-rejalashtirilgan maqsadlarga muvofiq ta’limning har bir bosqichida erishilgan aniq belgilangan darajasi, ta’lim xizmatlari amalga oshiriliyotganda jarayon ishtirokchilarining kutiladigan ko‘rsatkichi sanaladi.

Ta’lim sifatiga nisbatan keltirilgan yuqoridagi ta’rif va tavsiflardan kelib chiqqan holda, V.Gurov bu tushunchaga bildirilgan munosabatlarni to‘rt yondashuvga ajratishga muvaffaq bo‘ladi.[5]

Xulosa (Conclusion). Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim sifati va uni boshqarish masalasi qadimiy davrlardan boshlab mutafakkirlar e’tiborida bo‘lib kelgan hamda har bir tarixiy bosqichda jamiyat taraqqiyoti talablariga mos ravishda takomillashib borgan. Qadimgi Sharq va G‘arb olimlari ta’limni shaxs kamoloti, axloqiy yetuklik va amaliy faoliyat bilan bog‘lagan bo‘lsalar, keyingi davrlarda ta’lim sifati ilmiylik, tizimlilik va boshqaruv samaradorligi mezonlari asosida talqin etila boshladi.

Zamonaviy yondashuvlarda ta’lim sifati nafaqat o‘quv natijalari, balki shaxsning har tomonlama rivojlanishi, kasbiy kompetensiyalarining shakllanishi, jamiyat va mehnat bozori ehtiyojlariga mosligi bilan belgilanadi. Bu esa ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, innovatsion boshqaruv mexanizmlarini joriy etish hamda ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni taqozo etadi.

Shu bois uzluksiz ta’lim tizimida sifatni ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishi, inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan kompleks yondashuv asosida amalga oshirilishi zarur. Ta’lim sifatini oshirish orqali jamiyatning intellektual salohiyati va raqobatbardoshligi ta’minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2021.
(2). Aristotle. Metafizika. Afina, mil. avv. IV asr.
(3). Confucius. Lun Yu (Suhbat va mulohazalar). Qadimgi Xitoy manbasi.
(4). Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. XI asr.
(5). Muhammad al-Khwarizmi. Al-jabr val-muqobala. IX asr.
(6). Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. X asr.
(7). Abu Ali ibn Sino. Donishnoma. XI asr.
(8). Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. XV asr.
(9). Jan Amos Comenius. Buyuk didaktika (Didactica Magna). 1657.
(10). Adolf Diesterweg. Nemis o‘qituvchilariga qo‘llanma. XIX asr.
(11). Konstantin Ushinsky. Inson – tarbiya predmeti sifatida. 1868.
(12). Shishov S.Y., Kalney V.A. Ta’lim sifati: nazariya va amaliyot. Moskva, 2000.

---

[1] Воронин Д.М., Мишина О.С. Критерии эффективности образовательной организации как основа оценки и повышения качества образования. “Перспективы науки и образования”, Международный электронный журнал, 2018, № 5 (35).

[2] Домбровская М.А. Мониторинг качества обучения в учреждениях профессионального образования региона в условиях рыночной экономики. Дисс. канд. пед. наук, 13.00.08. М., 2002.

[3] Djuraev A.S. Malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning kasbiy malakasini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori diss. avtoref., Samarqand, 2019.

[4] Шмырева Н.А., Губанова М.И., Крецан З.В. Педагогические системы: научные основы, управление, перспективы развития. Учеб, пособие, М-во образования Рос. Федерации, Кемерово, Кемер. гос. ун-т, 2002.

[5] Гуров В. Качество образования в негосударственных вузах. “Высшее образование в России”, № 6, 2004.